

MAKTABGACHA TA'LIMDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARIDAN
FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Xidirova Umida Erkin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti,

“Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

E-mail: umidaxidirova85@gmail.com

Tel:(+99894) 488 78 01

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda jahon adabiyoti namunalaridan foydalanishning o’ziga xos ahamiyati yoritib berilgan*

Abstract: *This article highlights the special importance of using examples of world literature in preschool education.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается особая важность использования образцов мировой литературы в дошкольном образовании.*

Kalit soʻzlar: *ma’naviyat, kitobxonlik, majoziy, estetik, personaj, emotsional, diktsiya, mantiqiy urg’uni, pauza, ovoz toni va tempi*

Key words: *spirituality, literacy, figurative, aesthetic, character, emotional, diction, logical accent, pause, voice tone and tempo*

Ключевые слова: *одухотворенность, грамотность, образность, эстетика, характер, эмоциональность, дикция, логическое ударение, пауза, интонация и темп голоса.*

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- huquqiy va ma’naviy o’zgarishlar ta’lim tizimi oldiga ham yangicha talab va vazifalar qo’ydi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash vazifasi, ayniqsa, maktabgacha tarbiya sohasi vakillari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o’qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o’rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko’tarishni davrning o’zi taqozo etmoqda”, deya ta’kidlashlari ham bejiz emas. Mamlakatimizda yoshlar ta’lim va tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida¹ ta’lim O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilindi.

¹. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi qonuni” O’RQ-637. 23.09.2020

Yurtimizda xalqimizning ko‘p asrlik ezgu orzulari ro‘yobga chiqayotgan bugungi kunda madaniy va ma‘rifiy sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalardan biri — “Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e‘tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma‘naviy fazilatlar egasi bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak” . Binobarin, “Mustaqil fikr yuritadigan, to‘g‘ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir. Ha, bunday yoshlar kamolotida, albatta, badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta rol o‘ynaydi. Chunki kichkintoylar alla, qo‘shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, ertak eshitib, o‘qib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to‘ladi, hayotga intilish, qiziqish hislari jo‘sh uradi. Ma‘naviy tomondan ham yuksala boradilar. Xususan, kitobxonlikka mehr uyg‘otish, bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa bolalarga atalmish vaqtli matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg‘otish orqali o‘tkazish, ta‘lim – tarbiya berishda alohida o‘rinni egallaydi. Adabiyot fanining asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat bilim berishgina emas, balki tarbiyalashdan ham iborat.

Ma‘lumki, bolalarga bag‘ishlangan chet el asarlari mazmun jihatidan ham bir necha turkumlarga ajratiladi va bunday toifalashda tasvir uslubi asosiy o‘rin tutadi. Zero, bolalarga mo‘ljallangan asarlarning bir qismida ijodkorlar katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ kishi sifatida o‘z qarashlarini yosh bolaning tasavvur va qarashlari bilan uyg‘unlashtirib ifodalasalar, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan hikoyalash uslubi ustuvor. O‘tgan asrning 70-80- yillaridan boshlangan jahon bolalar adabiyotidagi mutlaqo yangi o‘zgarishlar ko‘plab olim va tadqiqotchilar e‘tiborini tortgan. Bunday she‘rlarning badiiy ko‘lami ham tadqiq etildi. Jumladan, R. Barakayev, M. Jumaboyev² singari olimlarning tadqiqotlarida mazkur jihatlar atroflicha yoritilgan. Jahon bolalar adabiyotini o‘qitishning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va bu orqali o‘zbek kichkintoylariga taqdim etilayotgan badiiyat namunalari tarbiyaviy tizimini o‘rganish. Ramziy va majoziy obrazlarning bolalar adabiyotida tutgan rolini misollar yordamida tahlil qilish. Jahon bolalar yozuvchilari asarlari misolida ramziy va majoziy obrazlarning ahamiyati xususida aniq xulosalar chiqarish.

Bolalar adabiyoti deganda yozuvchilar tomonidan ularga mo‘ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz. Shuningdek, katta yoshdagilarga atalgan, biroq bolalar ma‘naviyatini boyitadigan, ularga ma‘rifiy - estetik zavq berishi mumkin bo‘lgan asarlar ham bolalar kitobxonligini tashkil etadi. Ijtimoiy ong shakllari, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni o‘ziga xos

² Jumaboyev M. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 1993

vositalarda badiiy aks ettiradi. Bolalar adabiyotida aks ettirilgan voqeliklar hayotiy, haqqoniy tasvirlanish hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy - estetik g'oyani ilgari surish lozim. Bolalar adabiyotining yana bir muhim xususiyati uning pedagogika bilan mahkam bog'langanligidadir. Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy - badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi. Zero, pedagogika bilan bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari mushtarak: yosh avlodga chinakam aqliy - axloqiy estetik va jismoniy tarbiya berishdir. Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga otlantiradigan asarlar yozib, yorqin, kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari kerak. Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonning sevimli do'stiga, hamrohiga aylanib qoladi. Insonni bolalarga avvalo buyuk qahramon, noma'lum mamlakatlarni kezgan qo'rqmas sayyoh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashuvchi, o'z orzu-umidlariga sodiq, irodali qilib ko'rsatish kerak. Barcha yozuvchilarning eng yaxshi asarlari bolalarni atrofdagi hodisalarga to'g'ri baho berishga o'rgatadi, kishilarimizning yuksak ma'naviy sifatlarini ko'rsatadi, bolalarni ona Vatanga, mehnatga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Kitob bolalarga hayotni o'rgatuvchi haqiqiy muallim bo'lishi uchun ularning kitobxonligini to'g'ri tashkil qilish kerak. Bolalarni kitob tanlashga, muntazam ravishda o'qish o'rgatish lozim. O'qilgan kitoblar yuzasidan o'qituvchining rahbarligida turli mulohazalar, muhokamalar, kitobxonlar konferensiyasi o'tkazib turish katta foyda keltiradi. O'qituvchi va tarbiyachilarning bolalar adabiyotidan foydalana bilishlari, maktabgacha ta'lim - tarbiya ishlarining sifat va samarasini yanada yuqori darajaga ko'tarishi, o'quvchilarning badiiy kitoblarga bo'lgan muhabbatini oshirish ishlarini yaxshilash vositalaridandir. Ilg'or izlanuvchan tarbiyachi har bir mashg'ulot uchun yangilik izlaydi, ish jarayonida yangi metod va usullarni qo'llaydi. Har bir mavzu ustida ishlar ekan, albatta qo'shimcha adabiyotlarni topadi, ishlab chiqadi. Ma'lumki badiiy asar o'quvchilarni estetik did va tushunchasini shakllantiradi, shoir ijodiga havas hissini oshiradi. O'quvchining o'zi ifodali o'qish qonun-qoidalarini bilib olishi kerak. Ifodali o'qish badiiy o'qish san'atini egallashi uchun zamin hozirlaydi. Bolalar uchun ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berishi bilan birga kitobxonning nutqini o'stiradi, boyitadi, xalq tilining kuchi, boyligi va go'zalligini bilib olishga imkon beradi. Ona tiliga muhabbatini oshiradi. Hozirgi

zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonning sevimli do'stiga hamrohiga aylanib qoladi. Hayotni faol suratga o'zgartirayotgan jamiyat taraqqiyotida kurashlarda oldinda borayotgan ilg'or kishilar, mehnatkashlar haq o'zbek bolalar adabiyoti jahon bolalar adabiyotining ilgor an'analari ta'sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyotining nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilindi, "Gulliverning sayohatlari" (J. Swift), "Robinzon Kruzo" (D. Defo), "Tom tog'aning kulbasi" (BicherStou), "So'na" (E. Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarning ham mulki bo'lib qoldi. Sharq adabiyoti eng yaxshi namunalarini arab, fors tilidan tarjima qilish bolalar adabiyoti tarjimachiligidagi bir yo'nalish bo'lsa, G'arb adabiyoti, xususan rus adabiyoti namunalarini o'zbekchalashtirish ikkinchi yo'nalishni tashkil etdi. I. A. Krilov masallari, A. S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" asari, K. D. Ushinskiy hamda L.N. Tolstoyning bir qancha hikoya, ertaklari va boshqa ayni shu davrda tarjima qilinib, yangi usuldagi maktablar alifbo va o'qish kitoblariga kiritildi. Ijodkorlar tarjima vositasida realistik Bolalar adabiyoti ning o'ziga xos xususiyatlarini yanada mukammal egalladilar, bolalar uchun yozuvchi adiblar guruhi shakllandi. 20-asrning 20—30- yillarida Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, Gulom Zafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Kudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min va boshqa ijodkorlarning asarlari o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chet el yozuvchi, shoirlarining ajoyib asarlari orqali bolalarning dunyo haqidagi fikr doirasi kengayib boradi, turli mamlakatlarning tabiati, xalqlarning turmush sharoiti, urf-odatlarini, madaniyati va san'ati bilan tanishadilar. Yosh kitobxonlarda chet mamlakatlarda yashayotgan mehnat ahliga nisbatan do'stlik va birodarlik tuyg'ulari kurtak otadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg'on va boshqa so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. Adabiyotning tarbiyaviy tomoni haqida N.G. Chernishevskiy shunday degan edi: „Yozuvchilarning kishilarga hayot to'g'risida to'g'ri tushuncha beruvchi asarlarini o'qir ekanmiz, biz yomon narsalardan o'zimizni tiyishga, chiroyli va yaxshi narsalarning go'zalligini tushunishga o'rganamiz, adabiyotni o'qish orqali biz o'zimiz yaxshilik qilishga, samimiy, saxiy bo'lishga harakat qilamiz“. Biz bolalarga badiiy asarlarni o'qib berish orqali ularda estetik idrokni tarbiyalaymiz: bola badiiy asarni tinglab, o'zining xayolida asar qahramonlarini gavgdalantiradi, yozuvchining bayon etganlarini ko'z oldiga keltiradi, bolalarda mazmunli, ifodali nutq tarbiyalanadi, badiiy so'zga muhabbat, ertaklarni, hikoya va she'rlarni tinglashga qiziqish o'sadi. Badiiy asar bolaning lug'atini boyitadi va takomillashtirib boradi. Maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyachisining oldida har bir badiiy asarni san'at asari sifatida bolalar ongiga yetkazish, uning mazmunini ochib

berish, badiiy asarda qatnashuvchi personajlarga nisbatan emotsional munosabatda bo'lish, muallifning lirik kechinmalarini his etishga, ya'ni asarda qatnashuvchi qahramonlarga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalashga o'rgatish kabi murakkab vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachining o'zi, bolalarni badiiy asar bilan tanishtirishdan avval, uni his etishi va tushunishi, mazmunini tahlil eta olishi zarur. Shuningdek, pedagog o'qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya'ni aniq diktsiyani, ifodali o'qish vositalarini (mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'ya olish, pauza, ovoz toni va tempi) egallagan bo'lishi kerak. Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga yetkazadlingandagina, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri idrok ettira olish mumkin. Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yoshidan boshlab rivojlantirish va tarbiyalash kerak, shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy nutqqa e'tibor berishga o'rganadi.

Bolalar ongiga badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini yetkazish - bu murakkab vazifa hisoblanadi. Jahon bolalar adabiyoti bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi. Bolalarni jahon bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" O'RQ-637. 23.09.2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ4884 06.11.2020
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. – T.: Cho'lpon, 2006.
5. Adabiyot va san'at. Adabiy tanqidiy maqolalar, o'ylar, munozaralar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
6. Zaynutdinova M. – O'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi jurnali, № 1, 2004 -yil.
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: Sharq. 2005..
8. Haqqulov I. She'riyat ruhiy munosabat. – T.: G'. G'ulom nomidagi NMIU, 1989.
9. Izzar Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005
10. Jo'raeva G. O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorat. Monografiya –T: Muharrir, 2011.
11. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik-majmua.-T.: O'qituvchi.1994.
12. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. – T.:O'qituvchi, 1993.